



## O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING MORFOLOGIK USULDA YASALISHI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi 1-  
bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8063454>

### ARTICLE INFO

Received: 12<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 19<sup>th</sup> June 2023

Online: 21<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

Ot, predmet, affiks, narsa, qurol,  
o'lchov, buyum, ish-harakat,  
fe'l, ravish, olmosh, son, taqlid  
so'zlar.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillaridagi  
otlarning morfologik usulda yasalishi, ularning qiyosi,  
o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma'nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma'nosi turli-tuman bo'lib, u jonli predmetlarni (*it-собака-iyt, mushuk-кошка-pishiq*) (*bola-ребёнок-bala, qush-nмуца-qus*), narsa, predmet va hodisalarni (*sut-молоко-su't*), (*yomg'ir-дождь-jawin*), (*daftar-memradъ-da'pter, kitob-книга-kitap*), (*majlis-собрание-jiynalis*) ataydi.

Hozirgi o'zbek tilida ot so'z turkumi tug'at tarkibida mavjud bo'lgan so'zlarning miqdorini tashkil qiladi. Chunki ot so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan yangi so'zlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdir. O'zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi<sup>1</sup>. Quyida biz o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning morfologik usulda yasalishini, o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida morfologik usulga ko'ra, so'z negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qo'shish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi mustaqil so'z turkumlari, shuningdek, modal va taqlid so'z negizlaridan yasaladi. Morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar ma'no jihatdan quyidagi guruhdagi otlarni yasaydi:

1. Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.
2. Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi affikslar.
3. O'rin-payt otlarini yasovchi affikslar.
4. Abstrakt ot yasovchi affikslar.

Shaxs va kasb hunar otlarini yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo'shilib, negizdan anglashilgan predmet bilan bog'liq shaxs otlarini va ma'lum soha, kasb bilan shug'ullanuvchi kasb-hunar otlarini yasaydi<sup>2</sup>. Bu affikslarga: **-chi**: o'qituvchi, **-dosh**: kursdosh, **-gar**, **-kor**: zargar, **-bon**, **-boz**: bog'bon, **-paz**: oshpaz, **-kash**: suratkash, **-dor**: chorvador, **-shunos**:

<sup>1</sup>Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 94.

<sup>2</sup>O'sha asar. - B. 95.



tilshunos, **-soz**: soatsoz, **-xon**: kitobxon, **-do'z**: etikdo'z, **-xo'r**: choyxo'r. Shaxs va kasb-hunar yasovchi affikslardan **-chi** affiksi juda ko'p qo'llanadigan affikslardan sanaladi.

Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi affikslar, asosan, fe'l negiziga qo'shib negizdan anglashilgan ish-harakat va holatning natijasi bo'lgan yoki ish-harakatni bajarish uchun qo'llaniladigan narsa, qurol otini yasaydi<sup>3</sup>. Bu affikslarga: **-k**, **-ak**, **-q**, **-oq**: kurak, teshik, so'roq, **-gich**: suzgich, **-gi**: supurgi, **-m**: to'plam, **-ma**: qiyma, **-don**: qalamdon, **-indi**: yuvindi, **-qin**: toshqin, **-in**: yig'in, **-a**: jizza, **-os**: chuvvos, **-moq**: quymoq, **-cha**: olacha, **-chiq**: yopinchiq, **-ildoq**: shaqildoq, **-noma**: taklifnoma kiradi.

O'rin-payt otlarini yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo'shib, negizdan anglashilgan predmet mavjud bo'lgan, ekiladigan, dam oladigan, yashaydigan o'rin-joy otlarini yasaydi. Bu affikslarga: **-zor**: olmazor, **-loq**: qumloq, **-iston**: O'zbekiston, **-goh**: oromgoh, **-xona**: chorxona kiradi.

Abstrakt ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish ba'zan modal so'z negizlariga qo'shib, negiz anglatgan tushuncha, bilan bog'liq abstrakt ma'nodagi ot yasaydi. Bularga: **-liq(-lik)**: go'zallik, **-ch(-inch)**: sevinch, **-chilik**: paxtachilik, **-gilik**: ko'rgilik kabi affikslari kiradi.

Rus tilida morfologik usul bilan yangi so'z yasash imkoniyati kengroq, chunki rus tilida, suffikslardan tashqari, prefikslar bilan yoki prefiks va suffiksning bir vaqtda ishlatilishi bilan ham yangi so'zlar yasaladi. Masalan: **-ник**: колхозник, **-ак**: рыбак, **при-ход**, **за-пись**, **вы-крой-ка**, **под-готов-ка** va hokazo.

Rus tili suffikslarga juda boy. Hatto ayni bir ma'no turlicha suffikslar bilan ifodalanadi. Masalan: **-тель**: писатель, **-щик**: стекольщик, **-чик**: лётчик, **-ник**: колхозник, **-ист**: тракторист, **-ец**: борец, **-ак(-як)**: рыбак suffikslari biror kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi.

Rus tilida bir suffiks yordami bilan bir-biriga yaqin bo'lmagan ma'nolarni ifodalash imkoni ham bor<sup>4</sup>. Masalan: **-ниц** suffiksi bilan quyidagicha otlar yasaladi: a) biror kasb egasi bo'lgan ayol kishini anglatuvchi ot: колхоз-ниц-а, b) idish nomlarini: -сахар-ниц-а s) jamoatchilik foydalanadigan maxsus binolarning nomlarini: бол-ниц-а, гости-ниц-а, d) kasal nomlarini: -груд-ниц-а kabi.

Rus tilida ayrim suffikslar bilan yangi so'zlar yasalganda so'z sostavida rus tili grammatikasiga xos bo'lgan ba'zi fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan: **друг-дружба**, **партия-партия**. O'zbek va qoraqalpoq tillarida bunday hodisalar juda oz uchraydi: **son-sana - san-sana**, **ulug'-ulg'ay**, **isi-issiq - issi-issilaw** va hokazo.

Rus tilida suffikslar bilan yangi so'z yasash grammatik rod kategoriyasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ayni bir ma'noni ifodalashda ham suffikslar so'zning grammatik rodiga qarab qo'shiladi. Masalan: мужской род: колхоз-ник, учи-тель; женский род: колхоз-ниц-а, учи-тель-ниц-а kabi.

O'zbek va qoraqalpoq tilida rod kategoriyasi yo'q. Agar kasb egasining ayol ekanligini ta'kidlash kerak bo'lsa, sintaktik usul qo'llanadi, ya'ni shaxs bildiruvchi so'zga qiz, xotin, ayol so'zlaridan biri qo'shib aytiladi va shunday yoziladi. Masalan: traktorchi qiz – трактористка – traktorshi qiz, kolxozchi xotin – колхозница – kolxozshi hayal.

<sup>3</sup> Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 95.

<sup>4</sup> Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 40.



Rus tilida shaxsning tug'ilgan joyga, turar joyga bo'lgan munosabati **-ец, -анец, -янец, -як, -ин, -ич, -анин, -янин, -чанин** kabi suffikslari orqali ifodalanadi<sup>5</sup>. Masalan: Испания-испанец, Грузия-грузин, север-северянин va hokazo. O'zbek tilida esa bu affisllarning o'rniga **-lik**, qoraqalpoq tilida esa **-liq** affiksi qo'llaniladi. Masalan: Amerika- Amerikalik – Amerikalik, Ispaniya – Ispaniyalik – Ispaniyalik.

Qoraqalpoq tilida ham boshqa turkiy tillarga o'xshab, yangi so'z yasashning eng asosiy usullaridan biri morfologik usul bo'lib hisoblanadi. Qoraqalpoq tilida ot yasovchi affikslar ma'no jihatdan 3xil turga bo'linadi:

1. Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.
2. Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi affikslar.
3. O'rin-payt otlarini yasovchi affikslar<sup>6</sup>.

Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar **-shı, -shi** affikslari bo'lib, ular ot negiziga qo'shib, predmet yoki biror ish bilan shug'ullanuvchi shaxsni bildiradi: baliqshı, suwshı, etikshı va hokazo.

Ot negiziga qo'shib, predmetga, ishga yoki jamiyat tashkilotlariga tegishli, shunda ishlaydigan odamni bildiradi: Leninshı, kolxozshı, bozshı va hokazo.

Ot negiziga qo'shib, biror bir xarakterga ega bo'lgan shaxsni anglatadi: o'tirikshı, urlıqshı va hokazo.

Ish-harakat ma'nosini bildiradigan yoki mazmun tarafidan ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan so'zlarga qo'shib, ish-harakatni bajaruvchi yoki shu vazifani qiluvchi odamga nisbatan qo'llaniladi: oqıtıwshı, boyawshı, terimshı va hokazo.

**-ker,-ger, -kesh** affikslari ma'no jihatidan **-shı, -shi** affiksi anglatgan ma'nolarga juda yaqin. Bu affikslar bilan yasalgan otlar ham belgili bir kasbni bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llaniladi: zerger, pidaker, xizmetker va hokazo.

**-man,-ban** affiksi ot negizi anglatayotgan predmetni saqlovchi yoki shu obyektga qarovchi shaxsni anglatadi: bag'man, da'rwazaman va hokazo.

**-paz** affiksi ot negizi anglatayotgan predmet bilan ko'p shug'ullanuvchi yoki shu predmetni yaratuvchi shaxsni anglatadi: aspaz, oyınpaz va hokazo.

**-das, -des, -las, -les** affikslarining anglatadigan ma'nolari bir xil. Ya'ni bularning hammasida ham sheriklik ma'nolarini anglatadi: joldas, kewilles va hokazo.

**-purish** affiksi ot negizi orqali anglashiladigan predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxsni bildiradi: shaypurish, otınpurish va hokazo.

**-liq, -lik, -laq** affikslari ham bir qator ot so'zlarga qo'shib, shu predmetning shu joyda ko'p ekanligini bildiradi: tawlıq, tog'aylıq va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek, rus va qoraqalpoq tillaridagi ot yasash usullaridan eng mahsuldori – morfologik usuldir. Otlarning morfologik usulda yasalishi har 3 tilda ham bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilida morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar ma'no jihatdan 4 xil turga, qoraqalpoq tilida 3 xil turga bo'linib, ot yasalsa rus tilida affikslardan tashqari suffikslar va prefislar ham ot yasaydi. Xattoki, rus tilida suffiklar va prefikslar qo'shib so'z yasash imkoniyatiga ham ega. Rus tili suffikslarga juda boy til. Hatto ayni bir suffiks turli xil ma'nolarda kelishi mumkin. O'zbek va qoraqalpoq tilida rod kategoriyasi yo'q. Rus tilida esa

<sup>5</sup> Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent,1965. – B. 41.

<sup>6</sup> Nasirov D. va boshqalar. Ha'zirgi qaraqalpaq tili No'kis.1981. – B. 60.



suffikslar bilan yangi soʻz yasash rod kategoriyasiga bogʻliq. Oʻzbek tilida **-lik**, qoraqalpoq tilida **-liq** affikslari shaxsning tugʻilgan joyga, turar-joyga boʻlgan munosabatini bildirsa, rus tilida bir nechta **-ец, -анец, -янец, -як, -ин, -ич, -анин, -янин, -чанин** suffikslari bildiriladi. Qoraqalpoq va rus tillarida ot yasovchi affikslarning maʼnolari toʻliq qilib koʻrsatilgan. Oʻzbek tilida esa faqat misollar yordamida anglashilgan. Bu albatta oʻz oʻrnida baʼzi noqulayliklarni, oʻz esa navbatida tilni qiyoslab oʻrganishda nafaqat boshqa millat vakillari, balki, oʻzimiz uchun ham maʼlum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

## References:

1. Azizov O va boshqalar Oʻzbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: "Oʻqituvchi" nashriyoti.1965.
2. Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent: "Iqtisod-moliya" nashriyoti. 2007.
3. Nasirov D. va boshqalar. Haʼzirgi qaraqalpaq tili Noʻkis: "Qaraqalpaqstan" nashriyoti. 1981.